XALQ DEPUTATLARI TO’RTKO’L TUMANI KENGASHI QARORI

2021 - yil 30 - dekabr VI-38-65-13-190-K/21 To‘rtko‘l tuman hokimligi

2022-yilgi To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjeti parametrlari to‘g‘risida

O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-dekabrdagi “Byudjet jarayonlarini takomillashtirish munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonunu xujjatlariga o‘zgartirish qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 740-sonli Qonuniga muvofiq To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining 2022-yilgi belgilangan asosiy parametrlarini muhokama qilib, O’zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to’g’risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yilgi prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetidan 2022-yilgi ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori 3-ilovaga muvofiq taqsimlanishi belgilansin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan tuman mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosi hamda xarajatlar ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun

qabul qilinsin.

5. 2022-yil To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining zaxira jamg’armasi miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

To‘rtko‘l tumani byudjetining zaxira jamg’armalari 2022-yilda tegishli byudjetlar umumiy xarajatlarining 1 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda shakllantirilishi va zaxira jamg’armalarining mablag‘lari kechiktirib bo’lmaydigan hamda byudjet tizimi byudjetlari shakllanishida oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

6. To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining 2022-yil uchun yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. To‘rtko‘l tumani mahalliy byudjetining 2022-yilgi daromadlari va xarajatlari mablag‘larining miqdorlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Tuman byudjetida shakllangan qo‘shimcha manbalardan foydalanish haqida qarorlar Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan, tuman hokimligi takliflariga asosan, birinchi navbatda ijtimoiy soha tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida qabul qilinishi ta’kidlab o’tilsin.

9. To‘rtko‘l tumani hokimligi (R.Shamuratov), tuman moliya bo‘limi (J.Latipov) tegishli byudjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

Bunda, ko‘rsatib o‘tilgan xarajat turlariga to‘g‘ri mablag‘ ajratilganligi va taqsimlanganligiga mablag‘ taqsimlovchilarning javobgarligi oshirilsin.

Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan (ortiq bo‘lishi mumkin) miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarga ularning natijalarini joylashtirishni ta’minlasin.

10. Tumandagi tegishli tashkilotlar rahbarlari Xalq deputatlari tuman Kengashiga byudjet mablag‘laridan samarali va o‘z vaqtida foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to‘g‘risida yiliga kamida bir marta hisobot berishi belgilansin.

11. Tuman moliya bo‘limi (J.Latipov) va tuman Soliq inspeksiyasi

(A.Abdalov) byudjet daromadlari va xarajatlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

12. Xalq deputatlari tuman Kengashining deputatlari mahalliy byudjet mablag‘laridan maqsadli va natijali foydalanish bo’yicha doimiy nazorat o‘rnatsin hamda mahalliy byudjet daromadlari prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha har chorakda keng muhokama qilib borsin.

13. Mazkur qaror “To‘rtko‘lnoma” gazetasida chop etilsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

14. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga topshirilsin.

15. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **R.Shamuratov**

Халқ депутатлари Тўрткўл туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-38-65-13-190-K/21-сон қарорига
1-илова

2022 yil uchun To`rtko`l tumani mahalliy byudjetining daromadlari prognozi

ming.so'mda

t/r	DAROMADLAR TURLARI	JAMI
I	**JAMI SOLIQ VA YIG'IMLAR**	**50 333 000,0**
1	yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	
1	aylanmadan olinadigan soliq	10 810 000,0
3	jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	
2	tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgalangan daromad solig'i	1 700 000,0
5	qo'shilgan qiymat solig'i	
3	aksiz solig'i, jami	
	- benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan aksiz solig'i	
7	yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i	2 604 000,0
4	jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i	4 800 000,0
5	yuridik shaxslarning er solig'i	8 330 000,0
6	jismoniy shaxslarning yer solig'i	19 000 000,0
7	qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	106 000,0
8	suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, elektrastantsiyalardan tashqari	2 983 000,0
9	ijara to'lovlari	
II	**O'TKAZIB BERILADIGAN DAROMADLAR**	**35 271 000,0**
1	alkogol' mahsulotlari, shu jumladan pivo	**13 349 000,0**
2	mobil' aloqa xizmati	**7 606 000,0**
3	- tamaki mahsulotlari	**14 316 000,0**
III	**JAMI MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI**	**85 604 000,0**
IV	**TRANSFERTLAR**	**83 319 571,0**
	JAMI DAROMADLAR	**168 923 571,0**

Халқ депутатлари Тўрткўл туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-38-65-13-190-K/21-сон қарорига
2-илова

№	KO'RSATGICHLAR	2022 YI
	I. Xarajatlar - jami	**168 923 571**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**133 891 814**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	19 696 692
	- umumiy ta'lim	10 842 991
	- maktabgacha ta'lim	8 853 701
1.2	Sog'liqni saqlash	61 366 344
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	3 449 562
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 695 602
	- sport	1 753 960
1.4	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar	49 201 802
1.5	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	177 414
2.	**Iqtisodiyot xarajatlari**	**14 367 583**
	shu jumladan:	
2.1	Qishloq xo'jaligi vazirligi (qishloq xo'jaligi)	
2.2	Fermerlar xo'jaliklari buxgalteriya markazlari	684 137
2.3	Qishloq xo'jaligi vazirligi (suv xo'jaligi)	2 600 760
2.4	Davlat veterinariya qo'mitasining xududiy bo'limlarini saqlash xarajatlari	1 267 060
2.5	Obodonlashtirish	8 246 683
2.6	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 568 943
2.7	Xo'jayli va chalish suv yo'li texnik uchastkasi	
2.8	"toza hudud" davlat unitar korxanasi	
2.9	ko'p xonadonli uo'g'joy fonidagi tutash xududlarini obodanlashtirish	
2.10	uy joy komunal xo'jaligi vazirligining xududiy bo'limlrini saqlash xarajatlari	
3.	**Markazlashtirilgan investisiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	
4.	**Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini saqlash**	**5 149 791**
	shu jumladan:	
4.1	Davlat hokimiyat organlari	
4.2	Davlat boshqaruv idoralari	5 149 791
5.	**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash**	**5 952 671**
6.	**Zahira jamg'armasi**	**1 593 619**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi**	**7 968 093**

Халқ депутатлари Тўрткўл туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-38-65-13-190-K/21-сон қарорига
3-илова

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlarning mahalliy byudjetlariga ajratmalar me'yorlari

foiz hisobida

№	Shahar va tumanlar	Aylanmadan olinadigan soliq	Tadbirkorlik faoliyati bilash shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgalangan daromad solig'i	yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i	yuridik shaxslarning er solig'i	Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan aksiz solig'i	Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i	Jismoniy shaxslarning yer solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, elektrastansiyalardan tashqari	Ijara to'lovlari	Yig'imlar	Davlat ulushi mavjud korxonalarning sof foydasidan
1	To`rtko`l tumani	100	100	100	100					100			

Халқ депутатлари Тўрткўл туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-38-65-13-190-K/21-сон қарорига
4-илова

To`rtko`l tumani mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori

ming. so'm

№	Hududlar	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar
1	To`rtko`l tumani	83 319 571,0

Халқ депутатлари Тўрткўл туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-38-65-13-190-K/21-сон қарорига
5-илова

To`rtko`l tumani mahalliy byudjetining 2022 yil zaxira jamg'armasi miqdori

ming. so'mda

Hudud nomi	**Zaxira jamg'armalari**
To`rtko`l tumani	1 593 619,0

Халқ депутатлари Тўрткўл туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-38-65-13-190-K/21-сон қарорига
6-илова

To`rtko`l tumani mahalliy byudjetida yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdorlari

ming so'mda

t/r	**Hudud nomi**	**Miqdori**
1	To`rtko`l tumani	1 311,0

Халқ депутатлари Тўрткўл туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-38-65-13-190-K/21-сон қарорига
7-илова

To`rtko`l tumani mahalliy byudjetining 2022 yilgi daromadlari, xarajatlari va transfert mablag'larining miqdorlari

ming so'mda

t/r	Hudud nomi	Daromadlar jami	Xarajatlar jami
1	To`rtko`l tumani	85 604 000,0	168 923 571,0